

MAKTABGACHA TA'LIMNI TAKOMILLASHTIRISHDA ILG'OR AXBOROT KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYALAR

Olamova Mamura

Farg'ona davlat universiteti maktabgacha ta'lism kafedrasini o'qituvchisi

Ma'murova Diyora Alisher qizi

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

Xorijiy tillar fakulteti talabasi

Annotatsiya. Maqolada maktabgacha ta'lism tizimida ilg'or axborot texnologiyalari sifatida multemediali ta'limi joriy qilinishining ustuvor xususiyatlari pedagogik nuqtai-nazaridan muhokama qilingan.

Kalit so'zlar. Kompyuter texnologiyasi, multimedia, ta'lism, pedagog, didaktika, dastur, vosita, MTT, jarayon.

Yosh avlodni har tomonlama barkamol o'sishi, uning jismoniy, axloqiy va ma'nnaviy tarbiyasi to'g'risida g'amxo'rlik qilib voyaga etkazish masalasi davlatimiz siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri etib belgilangani, shu maqsadda ishlab chiqilgan O'zbekiston Respublikasida "Ta'lism to'g'risida"gi Qonun yangi tahrirda takomillashtirilib hayotga izchil tatbiq etilmoqda. Ta'lism tizimidagi islohotlar xalqimiz fazilatlariga, milliy mentalitetimizga mosligi, ayni paytda zamonaviy andozalarga asoslangani, uzlusiz va bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgani, ayniqsa, ta'lism va tarbiyaning uyg'unligi bilan ahamiyatlidir.

Maktabgacha ta'lism maskanlarida tarbiyaviy ishlarni takomillashtirish, pedagoglarning kasb malakasi va mahoratini oshirish, tarbiyaviy jarayonga zamonaviy pedagogik va kompyuter texnologiyalarni olib kirish muhim dolzarb masalalardandir. Kompyuter texnologiyalari yordamida didaktik ta'minotni yaratish usullari juda ko'pdirlar. AT asrida kompyuter ishlatilmaydigan biror kasbni ko'z oldimizga keltirib

bo‘lmaydi. Kompyuterni yoki informatika fanini o‘rganishni necha yoshda boshlash kerak va bu fanning aynan qaysi bo‘limlarini birinchi navbatda o‘rganish kerak degan savol tug‘iladi.

L.G.Peterson “Boshlang‘ich sinflarda matematika” dasturi bo‘yicha ishlab, mantiqiy masalalar, yuqori murakkablikdagi masalalarni echish qanchalik muhimligini tushungan. Bolalar tahlil qilish umumlashtirishni o‘rganishlari kerak. Aynan shu malakalar A.V.Goryachevning boshlang‘ich sinflar uchun “O‘yinlar va masalalarda informatika” kursida maqsadli kiritilgan.[1]

Hozirgi davrda gurkirab rivojlanayotgan multimedia texnologiyasi MTT larning ta`lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etilishi mumkin bo‘lgan ilg‘or va yangi texnologiyadir. To‘laqonli multimedia 1986 yilda yaratilgan bo‘lib, u o‘z ichiga bira to‘la matnli, tasvirli, ovozli, videoli, animasiyali va grafikli ma`lumotlarni oladi.[2]

Hozirgi kunda multimedia atamasi turli xil ma`noda qo‘llanilmoqda, masalan:

- turli xil axborotlarga ishlov berish tartibini yorituvchi;
- ishlov berish vositalarini qo‘llovchi va amalga oshiruvchi moslama texnologiyasi;
- qo‘llanish vositalari;
- mul`timedia texnologiyasiga asoslangan mahsulot;
- mul`timedia dasturi;
- kompyutering apparat ta`minoti (kompakt diskлarni o‘qish uchun mo‘ljallangan maxsus qurilmalar);
- axborotning umumlashtirilgan turi statik (matn, grafika) va dinamik (nutq, musiqa, video, animasiya)larning umumlashtirilgan maxsus turi.

MTT lar uchun multimediali yangi texnologiyaning tub mazmuni – bu multimediali kompyuter ta`limidir. Jumladan:

- didaktik vositalari (slaydlar, taqdimotlar va boshqa ko‘rgazmali quollar) kompyuterda tayyorlanadi;
- bilim materiallarini bolalarga o‘rgatish ham kompyuterlardan foydalanib amalga oshiriladi.

MTT larning ta`lim jarayoniga tatbiq etiladigan multimedia texnologiyasi odatdagi an`anaviy metodlarga nisbatan ma`lum bir afzalliklarga ega:

- bolalarda fikrlash qobiliyatini o'stiradi;
- bola bir vaqtning o'zida ham ko'radi, ham eshitadi (miyaning o'ng va chap yarim sharlari bir vaqtda faollik ko'rsatadi);
- an`anaviy usullarga nisbatan bolalarga o'rgatiladigan materialning hajmi ortadi;
- ta'limiy faoliyatlarning samaradorligi taxminan 1,5-2 marta ortadi;
- MTT bolalarining kompyuter savodxonliklarini shakllantirishga yordam beradi;
- bolalarning ta'limiy faoliyatda toliqib qolmasliklari uchun didaktik materiallarni animatsiyalar orqali uzatish imkoniyati mavjud;
- o'rgatilayotgan materiallarni kichik qismlarga ajratgan holda (yoki bo'lib-bo'lib) namoyish etish yoki qayta namoyish etish mumkin.

Multimedia tushunchasining aniq ta`rifi mavjud emas. Odatda multimedia deganda turli shakldagi ma`lumotlarni qayta ishlovchi vositalar majmuasi tushuniladi. Ayni vaqtda bu avvalo tovushlar, video-elementlarni qayta ishlovchi vositalardir. Shu bilan birga multiplikatsiya (animatsiya) va yuqori sifatli grafika hollarida ham multimedia haqida gapirish mumkin. Kelajakda multimedia vositalari ma`lumotning boshqa turlari, masalan, virtual voqe`lik bilan ishlash imkonini berishi ehtimoldan xoli emas. Multimedia usullarida qurilgan elektron ma`lumotnomalar, ensiklopediyalar, tarjimalar va lug`atlar kishini hayratga soladi. Ta'lim sohasida multimedia auditoriyada o'qilayotgan ma`ruzani talabalarning 25%iga yaqini rostman o'zlashtiradi, xolos. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, bir vaqtning o'zida ham ma`ruzani eshitish, ham uni kompyuter ekranida ko'rish va ekranga chiqarishni aktiv boshqarish asli o'zlashtirish sifatini oshiradi. Hozir multimedia o'quv programmalaridan Math CAD, PLUS 6.0 kabi kuchli programmalar mahsulotlari tarkibidan foydalilanildi.[3]

MTT larda multimedia texnologiyasining ta`lim sohasidagi asosiy va yetakchi tashkiliy shakli – kompyuterli mashg'ulotdir. Ushbu texnologiya bo'yicha

mashg‘ulotlar 30 daqiqa davomida, kompyuterlardan foydalanib olib borilgani uchun, o‘rtada 15 daqiqadan so‘ng 5-10 daqiqali o‘rganiladigan materialga tegishli o‘yin mashg‘uloti yoki suhbat, savol-javob o‘tkaziladi. Shundan keyin, yana mashg‘ulotning 15 daqiqasi davom ettiriladi.[4]

Hozirgi kunda turli xil multimedia ta’lim-tarbiya vositalarini ishlab chiqish va ularni tatbiq etish jadal rivojlanayapti. Lekin hanuz ulardan MTT larning ta’lim-tarbiya jarayonida foydalanish uslubiyoti ishlab chiqilmagan. Shuning uchun, MTT tarbiyachi-pedagoglari multimedia vositalarini multimedia texnologiyasi sifatida qabul qilmoqdalar, hatto ayrim maqolalarda shunday qarashlar yozilmoqda.

Yuqorida bayon etilganlardan kelib chiqib quyidagi xulosaga kelish mumkin:

- maktabgacha ta`limga tegishli o‘ziga xos va mos multimedia texnologiyasidan foydalanish, yangi pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish, yaratish va ularning metodikasini shakllantirish;
- MTMlarni imkoniyati boricha yangi kompyuterlar bilan ta`minlash (to‘la kompyuterlashtirish);
- oliy o‘quv yurtlarining professor-o‘qituvchilarini MTT da axborot texnologiyalarini, shu jumladan, multimedia texnologiyasini o‘quv-tarbiya jarayoniga tatbiq etish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlariga ko‘proq jalb etish hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. L.R.Mirjalolva va boshqalar Maktabgacha ta’limda zamonaviy yondashuvlar moduli bo‘yicha O‘quv-uslubiy majmua T.: 2017y.
2. Ishmuxamedov R.J., Yuldashev M. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar.– T.: “Nihol” nashriyoti, 2016y.
3. Xalq ta’limi sohasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish markazi: www.multimedia.uz
4. Maktabgacha ta’lim vazirligi: www.mtv.uz.
5. MU Olamova–Farg ‘ona davlat universiteti II–bosqich magistranti RN To‘ychieva–QQPI IV–bosqich talabasi
<https://scholar.google.com/scholar?oi=bibs&cluster=1184191814673959234&btnI=1&hl=ru>